

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ORTIQOV AVAZBEK BAHROMJON O‘G‘LI

**KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI
OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии(PhD) по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the
Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences**

Ortiqov Avazbek Bahromjon o'g'li

Kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish rivojlantirish
istiqbollari

3

Ортиқов Авазбек Баҳромжон угли

Повышение эффективности деятельности малых промышленных зон и
перспективы ее развития

27

Ortikov Avazbek Bakhromdjon ugli

Improving the efficiency of small industrial zones and prospects for its
development

53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works

60

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ORTIQOV AVAZBEK BAHROMJON O‘G‘LI

**KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI
OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.2.PhD/Iqt3960 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.nordicuniversity.org) va «Ziyonet» ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Murtazoyev Olim
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Salimov Baxodir Baxtiyorovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Xalqaro Nordik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "_____" kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100077, Toshkent shahri, Chust ko'chasi, 17-uy, 3-bino 1-qavat. Tel.: (95) 505-44-00, Faks: (95) 505-33-00; e-mail: info@nordicuniversity.org.

Dissertatsiya ishi bilan Xalqaro Nordik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100077, Toshkent shahri, Chust ko'chasi, 17-uy, 3-bino 8-qavat. Tel.: (95) 505-44-00, Faks: (95) 505-33-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "_____" kuni tarqatildi.

(2026-yil "_____" dagi №_____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.R. Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, i.f.d. (DSc)

M.K. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash Ilmiy kotibi, PhD,
professor

B.T. Salimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida sanoat ishlab chiqarishini samarali tashkil etish, kichik biznesni rivojlantirish va hududiy sanoat infratuzilmasini takomillashtirish zarurati bilan belgilanmoqda. Xususan, bugungi kunda kichik va oʻrta biznes subyektlari koʻplab mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 50-60 %ini hamda bandlikning 60-70 %ini taʼminlamoda¹. Rivojlangan davlatlar tajribasida kichik va oʻrta tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, bandlikni oshirish hamda sanoatni texnologik rivojlantirishning muhim mexanizmlaridan biri sifatida industrial parklar va kichik sanoat zonalarini keng qoʻllanilmoqda. Bugungi kunda AQSH va Xitoyda 400ga yaqin, Germaniyada 200dan ortiq, Turkiyada 262 hamda Vyetnamda 200ga yaqin industrial parklar faoliyat yuritmoqda². Ushbu zonalar ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish va yuqori qoʻshilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishda muhim rol oʻynamoqda. Shu jihatdan, kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirish va ularning rivojlanish istiqbollarini ilmiy asosda tadqiq etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon mamlakatlarida iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan hududlarni faollashtirish maqsadida industrial parklar, texnopolislar va sanoat zonalarini tashkil etish orqali hududiy rivojlanishni taʼminlash asosida iqtisodiy salohiyat hamda mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, yirik va kichik ishlab chiqarish subyektlari oʻrtasidagi sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, kichik sanoat zonalarini joylashgan hududlarning investitsion jozibadorligini kuchaytirish orqali raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi bandligini oshirish masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, zamonaviy taraqqiyot tamoyillari hamda global tendensiyalarni kompleks aks ettiruvchi konseptual modellarni ishlab chiqish, ushbu jarayonlardan davlat iqtisodiy siyosatining samarali instrumenti sifatida foydalanish masalalari mazkur yoʻnalishdagi ustuvor ilmiy tadqiqotlar sifatida qaralmoqda.

Oʻzbekistonda sanoat ishlab chiqarishni jadallashtirishga muhim hissa qoʻshuvchi kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularni rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Jumladan, Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasining 22-maqsadida “milliy iqtisodiyot barqarorligini taʼminlash va YaIMda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish” maqsadlari belgilab berilgan³. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish orqali davlat sanoat siyosatini izchil amalga oshirish, kichik sanoat zonalarini joylashgan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mavjud va foydalanilmayotgan xomashyo, mehnat hamda moliyaviy resurslarni ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, korxonalar oʻrtasida kooperatsion aloqalarni kengaytirish asosida sinergetik samaradorlikka erishish yoʻnalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ OECD. SME and Entrepreneurship Outlook. Paris, 2023.

² UNIDO. Industrial Parks and Special Economic Zones Report. Vienna, 2021.

³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. – T.: 2022. <https://lex.uz/docs/5841063#5843878>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 13-iyundagi PF-153-son farmonlari, 2014-yil 3-iyuldagi PQ-2200-son “Davlat mulki obyektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi 192-son “Zarar ko‘rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor va past rentabelli tashkilotlarning foydalanilmayotgan hududlarini hamda ortiqcha ishlab chiqarish maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2014-yil 31-dekabrda 378-son “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 2020-yil 9-martdagi “Kichik sanoat zonalarini to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish”ning ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy mamlakatlarda alohida iqtisodiy hududlarni tashkil etish va rivojlantirish tajribasi O‘zbekistonda barpo etilayotgan kichik sanoat zonalarini faoliyatidan muayyan jihatlari bilan farq qiladi. Biroq, ushbu tajribaning ilg‘or yondashuvlarini milliy sharoitga moslashtirish kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Sanoat zonalarini va industrial parklarni tashkil etish hamda ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari S.A. Frick, A. Rodríguez-Pose va M.D. Wong tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa, sanoat zonalarining hududiy rivojlanish va bandlikka ta‘siri N. Chaudhary hamda J. Potter⁴ ilmiy ishlarida yoritilgan.

Industrial zonalarini barpo etish va rivojlantirish yo‘nalishida MDH olimlari O.A.Axmedeyeva, O.V.Lyubova, O.N.Belenov, T.Y.Smolyaninova, Y.V.Shurchkova, M.I.Berkovich, N.I.Antipina, A.M.Fridman, V.M.Semenov, N.V.Vasilenkova, O.A.Yegorova, S.N. Kuznetsova, V.P.Kuznetsov, YE.B.Lenchuk, A.S.Tariverdiyev, V.S.Gromova kabi xorijiy olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar⁵. Mazkur olimlarning

⁴ Frick S.A., Rodríguez-Pose A., Wong M.D. Toward Economically Dynamic Special Economic Zones in Emerging Countries // *Economic Geography*. – 2019. – Vol. 95, № 1. – P. 30–64.; Chaudhary N., Potter J. Evaluation of the Local Employment Impacts of Enterprise Zones: A Critique // *Urban Studies*. – 2019. – Vol. 56, № 10. – P. 2095–2117.; Gómez-Zaldívar F., Molina E. Special Economic Zones and Their Impact on Regional Economic Development // *Problemas del Desarrollo*. – 2018. – Vol. 49, № 193. – P. 11–32.

⁵ Ахмадеева О.А., Любова О.В. Индустриальные парки как основа развития регионов на примере Чистопольского муниципального района Республики Татарстан. // *Стратегия устойчивого развития регионов России*, 2013. № 18. С. 8-20.; Беленов О.Н., Смольянинова Т.Ю., Шурчкова Ю.В. Индустриальные парки: сущность и основные характеристики. // *Региональная экономика и управление. Электронный научный журнал*. 2013. № 1 (33). С. 66.; Беркович М. И., Антипина Н. И. Особенности и классификация индустриальных парков: региональный аспект // *Вестник Костромского государственного технологического университета*. 2013. № 1 (3). С. 25-28.; Егорова А.О., Кузнецова С.Н. Промышленные парки как платформа для развития человеческого и финансового капитала. // *Научное обозрение*. 2016. № 18. С. 138-141.; Кузнецов В.П., Кузнецова С.Н., Лапаев Д.Н. Теоретические аспекты развития организационно-экономического механизма формирования промышленных парков. – Казань, изд-во Познание Института экономики, управления и права, 2014. 148 с.; Кузнецова С.Н. Развитие организационно-экономического механизма формирования промышленных парков: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. /Ивановский государственный университет. – Иваново, 2013. 24

asarlarida Rossiya sharoitida industrial parklar va sanoat zonalarini shakllantirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va ularning nazariy jihatlarini rivojlantirish masalalari o'rganilgan. Jumladan, S.N.Kuznetsova va V.P.Kuznetsovning ishlarida sanoat zonalarini barpo etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. M.I.Berkovich, N.I.Antipinaning ishlarida industrial parklarning mulkiy shakli, tarmoq ishlab chiqarishi va boshqa omillarga ko'ra tasniflash masalalari va ularning xususiyatlari tahlil qilingan. Industrial parklarning turlari va ularni barpo etishda davlat-xususiy sektor sherikchiligidan foydalanish, parklarni innovatsion rivojlantirish masalalari O.N.Belenov, T.Y.Smolyaninova va Y.V.Shurchkovaning ishlarida o'rganilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Y.Abdullayev, I.A.Bakiyeva, S.S.G'ulomov, Sh.X.Bayeva, U.V.Gafurov, B.Y.Xodiyev, G.K.Yaxshiboyev, Sh.E.Mannapova, B.B.Salimboyev, L.A.Kopilova, D.U.Berdimuratov⁶lar asarlarida asosan kichik biznesni tashkil etish, rivojlantirish va ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari tadqiq etilgan. Bundan tashqari, A.V.Vahobov, T.S.Malikov, Sh.Bayeva, S.S.G'ulomov, G.K.Yaxshiboyev va boshqalarning ishlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va moliyalashtirishga bag'ishlangan. Biroq, hozirgi vaqtda kichik sanoat zonalariga taalluqli ilmiy monografiya va darsliklar deyarli mavjud bo'lmay, bu borada e'lon qilingan maqolalar ommabop tavsifga ega. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan kichik sanoat zonalarining rivojlanish holati va o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan bo'lsada, ushbu tadqiqotlar kichik doirada amalga oshirilgan. Jumladan, R.Yuldashevning tadqiqotida kichik sanoat zonalarining hozirgi holati, ularning mamlakatimiz sanoatini rivojlantirish va aholi turmush farovonligini oshirishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, tadqiqotchi Sh.E.Mannapovaning tadqiqotlarida kichik

с.; Кузнецова С.Н., Кузнецов В.П. Методика оценки интегральной эффективности инвестиционных проектов в рамках промышленных парков: монография / Мининский университет. Нижний Новгород. 2015. 200 с.; Ленчук Е.Б. Формирование институциональной среды промышленного развития в контексте задач импортозамещения. // Вестник Института экономики РАН, 2014. № 6. С. 7-21.; Porter М. Е. On competition. Cambridge. MA: A Harvard Business Review Book. 1998.; Таривердиев А.С. Особенности специальных экономических зон на современном этапе (теоретический аспект). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –М.: ФГБОУВПО, 2012. –24 стр.; Громова В.С. Развитие инновационного потенциала свободных экономических зон Республики Беларусь. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –Минск: БГУ, 2022. –27 стр.

⁶ Abdullayev YE., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: Mehnat, 2010 yil 349 bet.; Абдуллаев Е., Юлдашев Ш. Малый бизнес и предпринимательство. – Т.: Иктисод-молия, 208-339 бет; Bakiyeva I.A. O'zbekiston yengil sanoatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish. Dissertatsiya... iqt. fan. nomzodi. – T., 2012 y.; G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: Sharq, 2002.-183b.; Sh.X. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish metodologiyasini takomillashtirish. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2015.-120 b.; Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent: Moliya, 2016 yil. 208 b.; Xodiyev B.Y. O'zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojlanishini ekonometrik modelashtirish. Dissertatsiya...iqt. fan. doktori. – T.: TDIU. 2000 yil. 338 bet.; Yaxshiboyev G.K. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy taminlash masalalari. Nomz.diss. – T.: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi, 2005.; Yuldashev R. Kichik sanoat zonalarini iqtisodiy taraqqiyot va xalq turmush farovonligining muhim vositasidir. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №4, 2017 y. avgust.; Burxanov A.U. Korxonalar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019 y. -160 b.; Mannapova Sh.E. O'zbekiston kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TMI, 2021. –125 b.; Salimboyev B.B. O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini barpo etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari / "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №1, yanvar-fevral, 2018 y. – 1–7-b.; Копылова Л.А., Бердимуратов Д.У. Факторы, влияющие на развитие малого бизнеса в сфере промышленности / "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012 y. –1–6-b.

sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirish masalalari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etilgan.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kichik sanoat zonolari faoliyati samaradorligini kompleks baholash, uni oshirish omillari va rivojlantirish istiqbollarini ilmiy asoslash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat mamlakat hududlarida kichik sanoat zonolari negizida sanoatni rivojlantirish hamda ularning faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Global iqtisodiy jarayonlardagi muvozanatli o'zgarishlar: o'sish nuqtalarining asosiy omillari" mavzusidagi fundamental loyihasi (2022-2026-yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi respublikamizda mavjud kichik sanoat zonolari faoliyati samaradorligini oshirish va ularni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kichik sanoat zonolari tushunchasining mohiyatiga yondashuvlar va ularning xususiyatlarini nazariy jihatdan tadqiq etish;

kichik sanoat zonolari faoliyati samaradorligini aniqlash bo'yicha mavjud nazariy uslubiyatlarni o'rganish;

xorijiy mamlakatlarda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tajribalarni o'rganish asosida ularni mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlarini baholash;

mamlakatimiz hududlarida kichik sanoat zonalarining rivojlanish holatini statistik tahlil qilish orqali ularning rivojlanishidagi o'zgarish tendensiyalarini baholash;

hududlardagi kichik sanoat zonolari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish asosida o'zgarish trendlarini baholash;

kichik sanoat zonalarida faoliyat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

mamlakatimiz sanoat tarmog'ining rivojlanish darajasiga kichik sanoat zonalarining ta'sirini ifodalovchi ko'p omilli modellar orqali o'rta muddatli davr uchun prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatuvchi kichik sanoat zonolari va ular tarkibida faoliyat olib boruvchi sanoat korxonalari olingan.

Tadqiqotning predmeti kichik sanoat zonolari faoliyati samaradorligini oshirish va rivojlantirish bilan bog'liq jarayonlardagi munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, ekspert baholash usuli, statistik tahlil, tizimli tahlil, anketa so'rovlari o'tkazish va tahlil etish, SWOT tahlil, ekonometrik tahlil va prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuv asosida "kichik sanoat zonasi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni ularning hududiy rivojlanish jarayonidagi institutsional va amaliy rolini

aniqlashtirishga ko'ra, investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik faoliyatini imtiyozli iqtisodiy rejim orqali qo'llab-quvvatlash hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash funksiyalarini o'zida mujassamlashtirgan kompleks iqtisodiy hudud nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

kichik sanoat zonalarining hudud jihatdan rivojlanishini atributiv belgilar asosida statistik guruhlash asosida baholashga ko'ra hududiy rivojlanish darajasi ko'rsatkichlari bo'yicha "past daraja", "nisbatan yuqori daraja" hamda "yuqori daraja" interval chegaralari aniqlanib, shakllangan guruhlar kesimida moliyaviy, infratuzilmaviy va mehnat resurslari omillarini kompleks optimallashtirish orqali hududiy rivojlanishni barqarorlashtirish taklifi ilmiy asoslangan;

kichik sanoat zonalarida turdosh mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar ulushi ($S_1 \geq 20\%$), kichik korxona maqomidan yirik korxona maqomiga o'tgan korxonalar ulushi ($S_2 \geq 30\%$) hamda yalpi mahsulot hajmida eksport ulushi ($S_3 \geq 30\%$) kabi atribut ko'rsatkichlarning chegaraviy qiymatlarini tahliliy-statistik usullar asosida aniqlash orqali mazkur hududlarda amalga oshirilayotgan strategik qarorlarning amaliy natijadorligini baholash taklifi ilmiy asoslangan;

kichik sanoat zonalarida bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, kichik sanoat zonalarida bandlar soni, kichik sanoat zonalarida tarkibida faoliyat ko'rsatgan korxonalar soni hamda kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida 2028-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"Kichik sanoat zonasi" tushunchasini yanada keng va aniq talqin etishga xizmat qiluvchi o'quv qo'llanma (darslik) asosida talabalarda mazkur kontseptsiya bo'yicha tizimli va chuqurlashtirilgan bilimlarni shakllantirish ta'minlangan. Ushbu yondashuv negizida "Xorijiy investitsiyalar va erkin iqtisodiy hududlar" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilib, oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga joriy etilgan;

atributiv belgilar asosida tasniflangan kichik sanoat zonalarida kesimida moliyaviy, infratuzilmaviy hamda mehnat resurslarini boshqarish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar hududiy rivojlanishni rejalashtirish jarayonida qo'llash uchun amaliy mexanizm sifatida tavsiya etilgan;

faoliyat yuritayotgan korxonalarni uchta mezon asosida baholash metodikasi ishlab chiqilib, kichik sanoat zonalarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholash amaliyotida foydalanish tavsiya etilgan;

ishlab chiqilgan ko'p omilli regressiya modeli asosida kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari foydasining 2028-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari hisoblab chiqilgan hamda rejalashtirish jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar hamda tadqiqot natijalari samaradorligining matematik-statistika va ekonometrika usullari yordamida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatini shu bilan izohlash mumkinki, tadqiqotda ishlab chiqilgan nazariy va uslubiy taklif hamda tavsiyalar kichik sanoat zonalarini hamda ular tarkibidagi sanoat korxonalari faoliyatini rivojlantirish va mamlakatimizda sanoat tarmog'ining jadal rivojlanishi, kichik sanoat zonalarini tarkibida faoliyat olib borayotgan korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan, shuningdek, mamlakatimiz sanoat tarmog'ida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida iqtisodiy samaradorlikni oshirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi Kichik sanoat zonasini boshqarish direksiyalari faoliyatida, hududlarda sanoat tarmoqlarini yanada rivojlantirishga doir tadbirlar ishlab chiqishda, siyosiy va iqtisodiy nobarqaror sharoitlarda sanoat tarmog'ini qisqa va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyalar ishlab chiqishda, oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislariga "Sanoat iqtisodiyoti", "Maxsus iqtisodiy zonalar", "Erkin iqtisodiy zonalar" fanlaridan o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanilish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirish va rivojlantirish borasida olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuv asosida "kichik sanoat zonasi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni ularning hududiy rivojlanish jarayonidagi institutsional va amaliy rolini aniqlashtirishga ko'ra, investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik faoliyatini imtiyozli iqtisodiy rejim orqali qo'llab-quvvatlash hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash funksiyalarini o'zida mujassamlashtirgan kompleks iqtisodiy hudud nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun tavsiya etilgan "Xorijiy investitsiyalar va erkin iqtisodiy hududlar" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 537-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda kichik sanoat zonalarining iqtisodiy mazmuni bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish hamda amaliyotda qo'llash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

kichik sanoat zonalarining hudud jihatdan rivojlanishini atributiv belgilar asosida statistik guruhlash asosida baholashga ko'ra hududiy rivojlanish darajasi ko'rsatkichlari bo'yicha "past daraja", "nisbatan yuqori daraja" hamda "yuqori daraja" interval chegaralari aniqlanib, shakllangan guruhlar kesimida moliyaviy, infratuzilmaviy va mehnat resurslari omillarini kompleks optimallashtirish orqali hududiy rivojlanishni barqarorlashtirish taklifi ilmiy asoslangan taklifidan O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 21-noyabrdagi 02-20-01462-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlarda kichik sanoat zonalarini 3 ta guruhga Sterjess metodikasi asosidagi guruhlash orqali strategik baholash natijalari aniqligi ortgan;

kichik sanoat zonalarida turdosh mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar ulushi ($S_1 \geq 20\%$), kichik korxona maqomidan yirik korxona maqomiga o'tgan korxonalar ulushi ($S_2 \geq 30\%$) hamda yalpi mahsulot hajmida eksport ulushi ($S_3 \geq 30\%$) kabi atribut ko'rsatkichlarning chegaraviy qiymatlarini tahliliy-statistik usullar asosida aniqlash orqali mazkur hududlarda amalga oshirilayotgan strategik qarorlarning amaliy natijadorligini baholash taklifidan O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 21-noyabrdagi 02-20-01462-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida alohida kichik sanoat zonalarining istiqboldagi transformatsiyasi shakllarini baholash natijalari aniqligi ortgan;

kichik sanoat zonalarini bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, kichik sanoat zonalarida bandlar soni, kichik sanoat zonalarini tarkibida faoliyat ko'rsatgan korxonalar soni hamda kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida 2028-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 21-noyabrdagi 02-20-01462-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida kichik sanoat zonalarining makro darajadagi rivojlanishini baholovchi chiziqli model asosida korxonalar foydasining (soliqdan oldingi) 2028-yilgacha bo'lgan maqsadli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan bo'lib, prognoz aniqligi 3,5 %lik tafovut oraliqida ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari ifodalangan 17 ta ish aprotatsiyadan o'tkazilgan. Ularning 9 tasi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, 8 tasi respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprotatsiyadan o'tkazilgan ishlardir.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 30 ta ilmiy uslubiy ish va 1 ta o'quv qo'llanma yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 12 ta ilmiy maqola, xususan respublika ilmiy jurnallarda 5 ta va xorijiy ilmiy jurnallarda 7 ta chop etilgan. Ilmiy-amaliy anjumanlar to'plamlarida umumiy 17 ta, shu jumladan 8 ta respublika hamda 9 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar materiallar to'plamlarida ilmiy tezislar nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kichik sanoat zonalari faoliyati rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kichik sanoat zonalari tushunchasi mohiyati, unga yondashuvlar va xususiyatlari, kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirishning nazariy jihatlarini hamda xorij tajribalari o‘rganilgan.

Jahonda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi yangi asr boshidan globallashtirish va milliy iqtisodiyot transformatsiyasi ta’sirida sezilarli o‘zgarish tendensiyalariga ega bo‘lmoqda. Mamlakatlar sanoat tizimi barqarorligini ta’minlash va yangi tarmoqlarni shakllantirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratuvchi maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etib, ularda yuqori talabga ega yoki import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarni joylashtirmoqda. Bunday yondashuvlar alohida tartibga ega hududlarning shakllanishi hamda ularning faoliyatini izohlovchi nazariy asoslarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Amaliyotda bunday hududlar maqsadi va funksiyasiga ko‘ra turli nomlar bilan yuritilib, ulardagi huquqiy-iqtisodiy tartib ham farqlanadi. Jumladan, bugungi kunda «erkin iqtisodiy zona», «erkin savdo zonasi», «sanoat zonasi», «kichik sanoat zonasi» kabi shakllar keng tarqalgan. Shunga muvofiq, mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini ushbu shakldagi tashkiliy tuzilmalar asosida rivojlantirishda kichik sanoat zonalarining mazmun-mohiyati va ilmiy asoslarini tashkil etuvchi ilmiy tadqiqotlar bilan tanishib o‘tish o‘rinlidir. Kichik sanoat zonalarini shakllantirish borasidagi turli mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mazkur tushuncha alohida mamlakat va hududlarda turli nomlar bilan atab kelingan. Ularning umumiy mazmuni esa “sanoat zonalari”, “industrial parklar”, “texnopolislar” kabi tushunchalar orqali ifodalanadi.

1-jadval


“Kichik sanoat zonasi” atamasi elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan tushunchalar tavsifi⁷

Tushuncha	Tushunchaning mazmuni
Erkin iqtisodiy zona	O‘zbekiston Respublikasi «Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida»gi Qonuniga ko‘ra Erkin iqtisodiy zona – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiyalar va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududdir.
Klaster	Klaster – bu iqtisodiyotning ma’lum bir sohasi bo‘yicha qiymat yaratish jarayonining barcha bosqichlarini hududiy jihatdan jamlaydigan, korxonalar, ilmiy tashkilotlar, davlat institutlari va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining o‘zaro kooperatsiyasi asosida shakllangan dinamik va o‘zini o‘zi rivojlantiruvchi ekotizim
Texnopark	Texnopark – bu yuqori texnologiyalar rivojlanishini ta’minlaydigan, ilmiy izlanishlar va tadbirkorlikni integratsiya qilgan, innovatsion mahsulot ishlab chiqarishning to‘liq siklini qo‘llab-quvvatlaydigan, bilim, texnologiya va kapital oqimi jamlangan hududiy-ekonomik ekotizimdir.
Kichik sanoat zonasi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 134-son bilan tasdiqlangan “Kichik sanoat zonalari to‘g‘risidagi Nizom”ga ko‘ra – ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan, aholi punkti hududining yoki aholi punktlar-aro hududning qonun hujjatlari bilan muayyan maqom berilgan hamda hududi doirasida xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmaga ega bo‘lgan ishlab chiqarish maydonlari joylashadigan va chegaralari aniq belgilangan qismi” hisoblanadi

⁷ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 134-son bilan tasdiqlangan "Kichik sanoat zonalarini to'g'risidagi Nizom"ga ko'ra, "kichik sanoat zonasi – ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan, aholi punkti hududining yoki aholi punktlararo hududning qonun hujjatlari bilan muayyan maqom berilgan hamda hududi doirasida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaga ega bo'lgan ishlab chiqarish maydonlari joylashadigan va chegaralari aniq belgilangan qismi" hisoblanadi⁸.

Takomillashtirilgan ta'rif asosida kichik sanoat zonalarining asosiy xususiyatlari ajratilib, ularning mazmuni tizimli ko'rinishda ifodalandi (1-rasm).



1-rasm. Kichik sanoat zonalarining asosiy xususiyatlari⁹

1-rasm ma'lumotlaridan kelib chiqib, kichik sanoat zonalarini barpo etishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq:

- hududlarda bo'sh yotgan yer va binolardan sanoat ishlab chiqarishda foydalanish.

- sanoat ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish.

- yangi qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish.

- hudud rahbarlarining sanoat siyosatini amalga oshirish (sanoat mahsulotlarining ustuvor turlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish).

Ilmiy izlanishlarimiz davomida amalga oshirilgan ilmiy adabiyotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, "kichik sanoat zonasi" tushunchasi turli manbalarda turlicha talqin etilgan bo'lib, ularning aksariyatida mazkur hududlarning hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, investitsiyalarni jalb etish va

⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi 134-son bilan tasdiqlangan "Kichik sanoat zonalarini to'g'risidagi Nizom". <https://lex.uz/docs/4758585>.

⁹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks funksiyalari yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli, mavjud yondashuvlar hamda mualliflik ta’rifi qiyosiy tahlil qilinib, ularning natijalari umumlashtirildi (2 va 3-jadvallar).

2-jadval

Kichik sanoat zonalariga oid xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan ta’riflar tahlili¹⁰

Yondashuv	Ta’rif mazmuni	Asosiy urg‘u	Cheklangan jihati
UNIDO	Sanoat faoliyatini rivojlantirish uchun infratuzilma va imtiyozlarga ega hudud	Sanoat siyosati, infratuzilma	Institutsional mexanizm to‘liq ochilmagan
OECD	KOB raqobatbardoshligini oshiruvchi hududiy instrument	Innovatsiya, raqobat	Barqarorlik masalasi yetarli yoritilmagan
Jahon banki	Hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi siyosiy instrument	Investitsiya, bandlik	Resurs boshqaruvi mexanizmi cheklangan
Mualliflik yondashuvi	Hududiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlanishni ta’minlovchi kompleks institutsional hudud	Tizimli va funksional yondashuv	Aniqlanmadi

2-jadvalda keltirilgan, xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan ta’riflar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kichik sanoat zonalarini asosan infratuzilmaviy yoki siyosiy instrument sifatida talqin etilgan. Mazkur tadqiqotda esa kichik sanoat zonalarini hududiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlanishni ta’minlovchi, resurslardan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan kompleks institutsional mexanizm sifatida mualliflik yondashuvi asosida talqin qilindi.

3-jadval

Kichik sanoat zonasi tushunchasining mavjud olimlar talqinlari va mualliflik yondashuvi asosida solishtirma tahlili¹¹

Yondashuv	Ta’rif mazmuni	Afzalliklari	Chekdanishlari
Xorijiy ilmiy adabiyotlar	Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish uchun maxsus ajratilgan hudud	Hududiy joylashuv va infratuzilma ahamiyati yoritilgan	Innovatsion rivojlanish, KOB va investitsiya omillari hisobga olinmagan
Milliy normativ-huquqiy hujjatlar	Soliq va bojxona imtiyozlariga ega bo‘lgan ishlab chiqarish hududi	Huquqiy tartibga solish mexanizmi aniq	Samaradorlikni oshirish mexanizmlari va natijaviylik ko‘rsatkichlari ochib berilmagan
Mahalliy tadqiqotlar	Infratuzilmaviy va institutsional obyekt sifatida talqin qilingan	Ishlab chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratilishi	Kooperatsiya, innovatsiya va eksport salohiyati cheklangan
Mualliflik yondashuvi	Hududiy-iqtisodiy, innovatsion, tadbirkorlik va investitsion omillar integratsiyasi asosida rivojlantiriladigan maxsus hudud	Tizimlilik, komplekslilik va samaradorlikka yo‘naltirilganlilik	Aniqlanmadi

¹⁰ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

¹¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

3-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, mavjud yondashuvlarda kichik sanoat zonalarining ayrim jihatlari, jumladan, hududiy joylashuvi, infratuzilmaviy ta'minoti va fiskal imtiyozlari alohida yoritilgan. Biroq, ushbu yondashuvlarning aksariyatida kichik sanoat zonalarining hududiy-iqtisodiy rivojlanishdagi tizimli roli, innovatsion faollikni oshirish, kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda investitsiyalarni jalb etishdagi kompleks vazifalari yetarli darajada asoslanmagan. Shu sababli, taklif etilayotgan mualliflik yondashuvi kichik sanoat zonalarini faol rivojlantiruvchi iqtisodiy institut sifatida talqin etilib, ularning faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish uchun mustahkam metodologik asos yaratadi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda kichik sanoat zonalarining rivojlanish tendensiyalari va ularning samaradorlik darajasiga omillar ta'siri tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimizda kichik sanoat zonalarining rivojlanishidagi o'zgarishlar tendensiyalari tahlili amalga oshirilib, kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligiga omillar ta'siri darajasi va ular faoliyatida risklarni pasaytirish imkoniyatlari baholangan.

2017-yilgacha bo'lgan davrda mamlakatimiz hududlarida tashkil etilgan hamda faoliyat ko'rsatayotgan maxsus iqtisodiy zonalar, texnoparklar va klasterlar bilan birga kichik hududlarda kichik sanoat zonalarini tashkil etilib, hududlarning mavjud iqtisodiy salohiyati negizida sanoat ishlab chiqarish quvvatlari oshirildi. Hududlarda tashkil etilgan maxsus iqtisodiy zonalarining 2019-2024-yillardagi holati va faoliyat ko'rsatkichlari tahlili ushbu turdagi tashkiliy tuzilmalar qisqa vaqt ichida yaratilgan sharoitlardan foydalangan holda hududiy sanoat ishlab chiqarishi sur'atlarini miqdoriy va sifat jihatidan rivojlantirib, mahsulot ishlab chiqarish hajmini jadal sur'atlar bilan oshirib borganligini ko'rsatadi (4-jadval).

Faoliyat ko'rsatayotgan maxsus iqtisodiy zonalarining 2019-2024-yillardagi rivojlanish holati tahlili ularning qisqa vaqt ichida jadal sur'atlarda rivojlanib borayotganligini ko'rsatadi. 2019-yilda erkin iqtisodiy zonalar soni 16 ta, kichik sanoat zonalar soni 63 ta, klasterlar 117 ta va texnoparklar 3 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib erkin iqtisodiy zonalar soni 25 ta, kichik sanoat zonalar soni 416 ta, klasterlar 433 ta va texnoparklar 23 tani tashkil etgan.

Amalga oshirilgan resurs ta'minoti, tashkiliy jarayonlar natijasida maxsus iqtisodiy zonalarida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan foyda solig'i to'languncha bo'lgan foyda hajmi ham barqaror va jadal sur'atlarda o'zgarib borgan. Agar 2019-yilda foyda solig'i to'langunga qadar bo'lgan foyda hajmi erkin iqtisodiy zonalar tarkibidagi korxonalarda 40,2 mlrd. so'mni, kichik sanoat zonalar tarkibidagi korxonalarda 20,2 mlrd. so'mni, klasterlarda 17,8 mlrd. so'mni va texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 9133,4 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich erkin iqtisodiy zonalarida 1745,5 mlrd. so'mga, kichik sanoat zonalarida 659,3 mlrd. so'mga, klasterlarda 612,6 mlrd. so'mga va texnoparklarda 5364,9 mlrd. so'mga ortgan. Ko'rinib turibdiki, maxsus iqtisodiy zonalar, xususan kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish hajmi va boshqa ko'rsatkichlar miqdoriy jihatdan ortish bilan birga, sifat jihatidan ham yaxshilanib bormoqda.

Respublika hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan maxsus iqtisodiy zonalar va ularda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi¹²

Koʻrsatkichlar	Oʻlchov birligi	Yillar					
		2019	2020	2021	2022	2023	2024
Erlin iqtisodiy zona (EIZ)lar							
Erkin iqtisodiy zonalar soni	birlik	16	18	21	20	21	25
Tarkibida faoliyat koʻrsatgan korxonalar soni	birlik	405	526	513	679	768	1071
Ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi	Mrld. soʻm	7877,5	12268,8	18704,,2	27252,1	37769,2	44182,5
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi	mlrd. soʻm	3313,1	3971,6	3319,9	3735,0	6269,6	16511,5
Foyda soligʻi toʻlangunga qadar foyda hajmi	mlrd. soʻm	40,2	564,3	540,3	2081,4	1177,4	1745,5
Kichik sanat zonalar							
Kichik sanoat zonalar soni	birlik	63	77	114	317	328	416
Tarkibida faoliyat korsatgan korxonlar soni	birlik	1317	1675	1869	2796	2494	3331
Ishlab chiqarilgan sanoat maxsulotlar hajmi	mlrd. soʻm	2516,5	2694,2	3964,4	6358,3	9505,6	15294,3
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi	mlrd. soʻm	414,9	304,6	219,3	1663,6	1038,6	2139,7
Foyda soligʻi toʻlagunga qadar foyda hajmi	mlrd. soʻm	20,2	249,7	258,0	372,8	639,3	659,3
Klasterlar							
Klasterlar soni	birlik	117	420	425	509	440	433
Ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi	mlrd. soʻm	4477,4	12609,0	19936,0	28679,2	31794,5	36372,6
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi	mlrd. soʻm	1743,8	2167,9	1245,0	2066,5	3584,3	3677,8
Foyda soligi toʻlagunga qadar foyda hajmi	mln.soʻm	17,8	366,1	1114,1	1011,3	-498,0	-612,6
Texnoparklar							
Texnoparklar soni	birlik	3	10	7	21	23	23
Tarkibida faoliyat koʻrsatgan korxonalar soni	birlik	49	484	56	1077	1694	2637
Ishlan chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi	mlrd.soʻm	202,9	252,2	494,5	427,2	910,4	1379,9
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi	mlrd. soʻm	9,1	67,7	17,5	156,4	681,0	538,0
Foyda soligi toʻlagunga qadar foyda hajmi	mln. soʻm	9,4	384,3	12,9	1912,0	3876,9	5364,9

Yuqoridagi tahlillarda biz tomonimizdan mamlakatimiz yalpi sanoat mahsulotini shakllanishida maxsus iqtisodiy zonalar, jumladan, kichik sanoat zonalarining ahamiyatiga oid bo'lgan ko'rsatkichlar o'rganib chiqildi. Tadqiqot obyekti hisoblangan, kichik sanoat zonalarining mamlakatimiz bo'yicha o'rta muddatli davrdagi rivojlanish holatida yuz bergan o'zgarish tendensiyalari tahlil qilindi (5-jadval). Jadval ma'lumotlari asosida aniqlangan o'zgarish tendensiyalari kichik sanoat zonalarini hududlarning sanoat mahsuloti hajmini oshirish, hududlar sanoat tuzilmalariga investitsiyalarni jalb etish, hududlarning ishsizlik muammolarini hal

¹² O'zbekiston Respublikasi Milly statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

etish, umuman olganda, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun yetarli salohiyatga ega bo'lgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadigan tarkibiy tuzilmalar sifatida qabul qilish mumkin. Mamlakatimizda kichik sanoat zonalarini faoliyatining rivojlanishi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ijobiy o'zgarish tendensiyalarini hamda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

5-jadval

Respublika hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan kichik sanoat zonalarining asosiy ko'rsatkichlari¹³

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar					
		2019	2020	2021	2022	2023	2024
Kichik sanoat zonalar soni	birlik	47	63	77	114	317	328
Kichik sanoat zonalarida faoliyat ko'rsatgan korxonalar soni	birlik	1317	1675	1869	2796	2494	3331
Kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	mln. so'm	2516,5	2694,2	3964,4	6358,3	9505,6	15294,3
Kichik sanoat zonalariga kiritilgan investitsiyalar hajmi	mln. so'm	414948,1	304665,0	219274,5	1634420,9	1038593,4	2139674,7
Kichik sanoat zonalarining eksport hajmi	mln. so'm	497617,9	717517,7	1000278,2	1180956,6	192906,3	3627903,9
Kichik sanoat zonalarida bandlar soni	kishi	14651	17973	17077	25145	26383	28157
Kichik sanoat zonalarida yaratilgan yangi ish o'rinlari soni	birlik	7339	6756	8789	9099	12308	12774

SWOT-tahlilni amalga oshirish jarayonida Farg'ona, Sirdaryo va Namangan viloyatlarida faoliyat ko'rsatayotgan kichik sanoat zonalarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar hamda kichik sanoat zonalarini direksiyalarining yetakchi mutaxassislari o'rtasida anketa so'rovnomalari o'tkazildi. Ushbu so'rovnomalarning natijalari asosida kichik sanoat zonalarini faoliyatini rivojlantirishda mavjud bo'lgan kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va risklar aniqlanib, SWOT-tahlil matritsasiga kiritildi.

Soha mutaxassislari va tadbirkorlar fikrlari asosida o'tkazilgan tahlillar natijalaridan kelib chiqib, tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi hududlari kesimida kichik sanoat zonalarining rivojlanishini tavsiflovchi natijaviy va omil ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'lanish qonuniyatlari baholandi. Yuqorida ta'kidlanga-

¹³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

nidek, omilli bog‘lanishlarni aniqlash va baholashda statistik guruhlashning oddiy usulidan foydalanildi.

$$h = \frac{X_{max} - X_{min}}{k}$$

Bu yerda: h – guruhlarning interval oralig‘i;

X_{max} – atributiv belgi sifatida tanlangan sonli to‘plamdagi eng katta qiymat;

X_{min} – atributiv belgi sifatida tanlangan sonli to‘plamdagi eng kichik qiymat;

k – guruhlar soni.

Bog‘lanishni baholashda guruhlar soni oldindan belgilanadi, bunday holat mavjud bo‘lmaganda esa u Sterjess formulasi asosida aniqlanadi.¹⁴

$$k = 1 + 3,32 \cdot \ln n$$

Statistik guruhlash uchun olingan ma‘lumotlar hududiy taqsimotni nazarda tutganligi hamda guruhlanuvchi hududlar 14ta bo‘lganligi sababli Sterjess formulasidan foydalanildi:

$$k = 1 + 3,32 \cdot \ln n = 1 + 3,32 \cdot 14 = 1 + 8,7 = 9,7 \approx 10$$

Hisob-kitoblarga ko‘ra, guruhlash uchun olingan to‘plamni 10ta guruhga ajratish lozim, biroq guruhlash jarayonida eng kichik va eng katta qiymat orasidagi farq katta bo‘lganligi sababli ko‘rsatkichlar faqat 4 guruhda joylashdi. Shu sababli, statistik guruhlashning boshidan 4 ta guruh bo‘yicha ishlandi.

$$h = \frac{2901641,8 - 15232,9}{4} = \frac{2886409}{4} = 721602,25$$

Guruhlar intervali chegaralari asosida hududlardagi kichik sanoat zonalarini faoliyati ko‘rsatkichlari taqsimlanganda, hududlarning aksariyati (12 ta hudud) 1-guruhga, bittadan hudud 3- va 4-guruhlarga mansub ekanligi, 2-guruhga esa birorta hudud kirmaganligi aniqlandi (6-jadval).

6-jadval

Guruhlangan hududlar bo‘yicha kichik sanoat zonalarida yaratilgan mahsulot qiymati va hududni tavsiflovchi omil ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik¹⁵

Guruhlar	Hududlar soni	Kichik sanoat zonalarida yaratilgan mahsulot o‘rtacha qiymati, mln. so‘m	Kichik sanoat zonalarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘rtacha soni, birlik	Kiritilgan investitsiyalarning o‘rtacha hajmi, mln so‘m	Sanoat mahsuloti eksporti o‘rtacha hajmi, mln. so‘m	Kichik sanoat zonalarida bandlarning o‘rtacha soni, kishi	Kichik sanoat zonalarida yaratilgan yangi ish o‘rinlari o‘rtacha soni, birlik
1-guruh	12	178658,6	174	106601,7	34944,4	1061	357
3-guruh	1	939492	126	224283,8	109741,3	2695	1252
4-guruh	1	2901641,8	541	120547,4	665191,8	9718	3558
Umumiy	14	427502,6	197	116003,7	85304,7	1796	650

¹⁴ Шорохова И. С. Шорохова, Н.В. Кисляк, О.С. Мариев; М-во образования и науки РФ, Урал. федер. ун-т. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2015. –С 29.

¹⁵ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

6-jadval ma'lumotlariga ko'ra, atributiv belgi sifatida tanlab olingan hududlardagi kichik sanoat zonalarida yaratilgan mahsulot hajmi ko'rsatkichi jalb etilgan investitsiyalar hajmi, eksport qilinayotgan mahsulot hajmi, bandlar soni hamda yangi yaratilgan ish o'rinlari soni ko'rsatkichlari bilan to'g'ri bog'liklikda ekanligi namoyon bo'lmoqda.

SWOT-tahlil va statistik guruhlash orqali atributiv va atributiv bo'lmagan omillarning bog'lanishi tahliliga asosan kichik sanoat zonalarini direksiylari tomonidan ular faoliyati natijadorligini oshirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda faoliyat olib borishi tavsiya etiladi:

- kichik sanoat zonalarini hududida sanoat korxonalari sonini ko'paytirish;
- kichik sanoat zonalarini korxonalari faoliyatiga turli manbalardan investitsiyalar hajmini oshirish;
- kichik sanoat zonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning asosiy qismini eksportga yo'naltirish;
- faoliyatni kengaytirish hisobiga yangidan yaratilgan ish o'rinlari sonini ko'paytirish hamda ushbu korxonalarda bandlar sonining barqaror o'sib borishini ta'minlash.

